

## ROSSIYALIK OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF TARIQATLARI ALLOMALARI VA MEROSINING O'RGANILISHI

**Abdurasulov Shahzod Rustam o'g'li**

Tasavvuf – uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat ta'limotdir. Tariximizda xalqimizni tarkidunyochilikka emas, balki ijtimoiy faol hayot tarziga da'vat etgan g'oyalar va qarashlar tarannum etilgan nodir asarlarni ilmiy tadqiq etish va yuzaga chiqarish sharqshunos-islomshunoslar oldida turgan muhim vazifalardandir.

Sharq va G'arb tadqiqotchilarining tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishi jarayonida manba sifatida xizmat qilgan yoki ishtirok etgan, ta'sir ko'rsatgan yoki ta'sirlangan diniy va falsafiy ta'limotlar xususidagi qarashlari turlicha. O'tgan o'n to'rt asrlik davrida Islom ta'limoti tasavvuf shaklidagi buyuk g'oyalar jarayonida rivojlandi. Bizning davrimizga kelib islomshunoslik, shu jumladan, tasavvufshunoslik keng miqyosda rivojlana boshladi. Uzoq muddatli Islomdan uzoqlashish, unga xurofot va bid'at deb qarash, odamlarni xudosizlikka, e'tiqodsizlikka, iymonsizlikka da'vat etuvchi dahriylik g'oyasi barbod bo'lgach, qalb va iymon bilan yashashga asoslangan turmush tarzi qaror topa boshladi. Islom ta'limoti, tarixi va falsafasini o'rganish imkoniyatlari kengaydi<sup>38</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyingi davrda tasavvufshunoslikka doir qator tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlari va allomlarini o'rganish bo'yicha dunyo tasavvufshunoslikida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, bugungi kunda ham tasavvuf tariqatlarini o'rganish G'arb va Sharq dunyosida davom etmoqda.

XX asrga kelib, islom olami va jahon falsafiy tafakkurining rivojiga katta hissa qo'shib kelgan tasavvuf ta'limoti va ayniqsa, uning rang-barang falsafasi Sharq va G'arb sharqshunos, islomshunos olimlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Natijada, rus va yevropalik olimlardan L. Massinon<sup>39</sup>, T. Nyoldeke<sup>40</sup>, V. V. Bartold<sup>41</sup>

Ye.E. Bertels<sup>42</sup>, A. D.Кныш<sup>43</sup> va boshqalar tomonidan tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotiga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Tasavvufni jiddiy, chuqur o'rganish g'arbda XX asrning birinchi o'n yilliklarida endigina boshlanayotgan edi. R. Nikolson va L. Massinon kabi tadqiqotchilarning klassik asarlarining paydo bo'lishi shu davrdan boshlanadi. Ya'ni bu davrda tasavvuf aslida nima ekanligini va ko'p asrlar

<sup>38</sup> Holmo'minov, Ja'far. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya).– T.: 2021. 280 b.

<sup>39</sup> Крачковский И. Ю., Бартольд В. В., Ольденбург С. Ф. Записка об учёных трудах Луи Массиньона. // «Известия Российской академии наук. VI серия». — 1924. — Т. 18.

<sup>40</sup> Нельдеке, Теодор // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

<sup>41</sup> Бартольд, Василий Владимирович. История культурной жизни Туркестана / В. В. Бартольд ; Акад. наук СССР, Комис. по изучению естеств. производит. сил СССР. - Л. : Акад. наук СССР, 1927. - [2], II, 256 с.

<sup>42</sup>Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с.

<sup>43</sup> Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история/ Кныш А. Д. пер с англ. Романов. М. Г. -М. 2004.

davomida yaratilgan tasavvuf adabiyotlarining rivojlanishida qanday rol o'ynaganini tushunish lozim edi. Markaziy Osiyo mintaqasi islom olamida katta o'ringa ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Movarounnahr tasavvuf vujudga kelgan va keng ildiz otgan o'lkalardan hisoblanadi. Markaziy Osiyo tasavvuf tarixining XII asrgacha, ya'ni so'fiylik tariqatlari paydo bo'lgunga qadar kechgan davri tasavvuf rivojida muhim o'rin tutib, uning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin bo'lgan.

Movarounnahr – bugungi Markaziy Osiyo hududida tarixan 5 ta tasavvufiy tariqat shakllangan. Bular:

- Hakimiya irfoniya maktabi (Hakim at-Termiziy asos solgan);
- Xojagon tariqati (Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni asos solgan);
- Yassaviya tariqati (Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan);
- Kubroviya (Shayx Najmiddin Kubro asos solgan);
- Naqshbandiya tariqati (Xoja Bahouddin Naqshband asos solgan)<sup>44</sup>.

Bu tasavvuf tariqatlari asoslariga bag'ishlangan asarlarning yozila boshlashi va shu orqali bu talimotning tizimlashtirilishi rus sharqshunosligida, islomshunosligida ma'lum darajada o'rganilgan. Tasavvufshunoslik yo'nalishi rivojida Yevgeniy Eduardovich Bertelsning faoliyati salmoqli o'rin tutadi. Ye.E. Bertels<sup>45</sup> rus sharqshunosligida tasavvufga alohida e'tibor bergan olimlardan hisoblanadi. Uning bir qator tadqiqotlari aynan tasavvuf va uning adabiyotiga bag'ishlangan.

Ye.E. Bertelsning tasavvuf adabiyotiga qiziqish o'sha davr ilm-fanining holati bilan izohlanadi. Ye.E. Bertels o'sha paytda yirik shoirlar nomlarini tushunish bevosita tasavvuf bilan bog'liq bo'lib, ularning ijodini tushunishning kalitini faqat tasavvuf ta'limotida topish mumkin, deb hisoblagan. Ye.E. Bertelsning tasavvufga oid asarlarining mohiyatini o'sha davrdagi fan holatining yana bir xususiyati belgilab berdi. Ya'ni tasavvuf adabiy merosning salmoqli qismi rus tadqiqotlarida hali o'rganilmagan edi. Arab mamlakatlari, Eron va Turkiyadagi tasavvufga oid yozma manbalarning keng ilmiy o'rganilishi endigina boshlanayotgan edi. Bu davrda Ye. E. Bertels Osiyo muzeyida forscha qo'lyozmalarni inventarizatsiya qilish va kataloglashtirish bilan shug'ullanar edi, tabiiyki, u fanga kam ma'lum bo'lgan yoki umuman ma'lum bo'lmagan eng qimmatli matnlarni – birinchi navbatda, tasavvuf

<sup>44</sup> Xolmo'minov, Ja'far. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya).– T.: 2021. 280 b. 23-bet.

<sup>45</sup> Bertels Yevgeniy Eduardovich (1890. Peterburg – 1957. Moskva) — sharqshunos olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi (1956). Turkmaniston Fanlar akademiyasi (1951) faxriy a'zosi. O'zbekistonda (1944) va Tojikistonda (1946) xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor (1928), filologiya fanlari doktori (1935). Peterburg universitetining huquqshunoslik (1914) va sharq (1918) fakultetlarini tamomlagan. Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyi (keyinchalik Sharqshunoslik instituti)da (1918—42, 1946-yildan umrining oxirigacha), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida, ayni vaqtda O'rta Osiyo davlat untida (1942—46) ishlagan. Ye.E. Bertels Yaqin va O'rta Sharq xalqlari, ayniqsa turkiy xalqlar madaniyati, tili, adabiyoti, tarixiga oid ilmiy ishlar yaratgan. Tasavvuf tariqati va adabiyotiga alohida e'tibor bergan. Mazkur sohalar bo'yicha matnshunoslik maktabi asoschilaridan biri. Firdavsiy (1935), Nizomiy (1940), Navoiy (1948), Jomiy (1949) ijodi haqida monografiyalar yaratgan. Nizomiyning "Iskandarnoma" asarining ilmiy tanqidiy matnini tayyorlagan (1948), Firdavsiy "Shohnoma"ning ilmiy tanqidiy matnini tayyorlashda rahbarlik qilgan. Fors, o'zbek, tojik, turkman adabiyotlari tarixidan ocherklar yozgan (1928—35). O'zbek yozuvchilari, jumladan Oybek va uning "Navoiy" romani haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

matnlarini aniqlashga, ularni ilmiy jurnallarda e'lon qilishga yoki ularning tanqidiy nashrlarini tayyorlash va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan<sup>46</sup>. Bu narsa uning tasavvuf adabiyotini o'rganishga bo'lgan qiziqishiga turtki bo'ladi.

Ye.E. Bertels tomonidan tasavvufga oid asarlarining yig'ma jildi Moskvada 1965-yilda "Tanlanan asarlar" sifatida nashr etildi. Ye.E. Bertelsning "Tanlangan asarlar"ning nashr etilgan uchinchi jildining mazmuni uning tasavvuf va tasavvuf she'riyati bo'yicha asosan 1920-yillarda yozilgan asarlari majmuasidir. Muallif tasavvufga oid tadqiqotlarni o'zining ilk maqolalardan boshlab, 1945-yilda yozilgan "Tasavvufning kelib chiqishi va so'fiy adabiyotining tug'ilishi" nomli umumlashtiruvchi asari bilan yakunlaydi. Tasavvuf va tasavvuf she'riyatini o'rganar ekan, Ye.E. Bertels hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolarga duch keldi. Olim tasavvufning kelib chiqishini, tasavvuf terminologiyasini ochish va shu tariqa so'fiylik matnlari talqinini ilmiy asosga qo'yish zarur edi. Tadqiqotchi tasavvuf she'riyatining rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, turli tasavvuf maktablarining davomiyligini aniqlashga harakat qildi. Bu yo'lda uning oldida tasavvuf risolasi va tasavvuf she'riyatining kompozitsiyasining shakllanishi, tasavvuf shayxlarining shaxsiyati muammolari va boshqa muammolar yuzaga keldi.

Ye. E. Bertels tasavvuf va tasavvuf adabiyotiga ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining boshidanoq alohida qiziqish ko'rsatib, 1920-yillarga kelib bu boradagi ilk asarlarini, xususan Farididdin Attorning tasavvufiy she'riyatining "Bulbulnoma" nomida tarjimasini nashr ettirdi. Keyingi uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida E. E. Bertels tadqiqotlarida tasavvuf va tasavvuf adabiyoti muhim o'rin egalladi. Tanlangan tadqiqot predmetini chuqur o'rganib, Ye. E. Bertels yirik ilmiy yutuqlar bo'lgan ko'plab qimmatli kuzatishlar va xulosalar qildi va bu uning 1920-yillardagi asarlariga mustahkam qadriyat baxsh etdi<sup>47</sup>. Ye. E. Bertels 1926 yilda yozgan maqolasida tasavvufning atoqli tadqiqotchisi L. Massion qarashlaridan qisman ta'sirlangan shekilli, "Tasavvufni faqat zohiran, ya'ni tashqi tomoniga qarab tushunish mushkuldir" degan xulosaga keladi.

Odatda G'arb olimlari tomonidan tasavvufni birinchi navbatda dunyodan butunlay voz kechish, "ichki dunyo"ga sho'ng'ish sifatida talqin qilingan. Ye. E. Bertels o'z asarlarida tasavvufning gumanistik xususiyatlarni, jonli insoniy tuyg'ularini o'rganishga harakat qiladi. Ye. E. Bertelsning bunga o'xshash mulohazalarini uning tasavvuf haqidagi boshqa ko'plab maqolalarida uchratish mumkin. Ye. E. Bertels tasavvuf she'riyatini o'rganishning eng boshidayoq o'rta asr Sharqining eng buyuk shoirlarining tasavvufga munosabati masalasiga yangicha yondashdi. Ye. E. Bertels 1929 yildagi «Navoiy va Attor» maqolasida bu boradagi o'z nuqtai nazarini Navoiy ijodi misolida eng aniq ifodalagan<sup>48</sup>. U mazkur maqolasida Navoiy ijodidagi insonparvarlik

<sup>46</sup> Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с.

<sup>47</sup> Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с. – 224.

<sup>48</sup> Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с. 418-420-betlar.

xususiyatlarini qayd etib, uning tasavvufga munosabatini to‘g‘ri belgilaydi. Uning ilmiy izlanishlari navoiyshunoslik faniga katta xazina bo‘lib qo‘shildi. Bertels o‘z ilmiy ishlarida Navoiy nomini turli soxtaliklardan, bo‘xtonlardan tozaladi. Navoiyning ijodiy shaxsiyati haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun olim dastavval Navoiyni shakllantirgan muhit va shu davr turkiy tili, she‘riyati, shoirlari, temuriylar faoliyati bilan qiziqadi. Izlanishlari natijasida Navoiy monografiyasini yaratadi<sup>49</sup>. Xususan, olim “Navoiy va Sharq adabiyoti” nomli maqolasida Sharq adabiyoti va forsiy til mavqeyi masalasiga to‘xtalib, turkiy tilning ravnaq topishida va yuksalishida hazrat Navoiyning hissasi benihoya ekanligini ta’kidlaydi: Ye.E.Bertelsning mazkur masala batafsil yoritilgan alohida “Layli va Majnun” maqolasi<sup>50</sup> mavjud bo‘lganligi bois, bu o‘rinda qisqa izohlar bilan chegaralanadi. Bu fikrlari bilan Bertels Navoiy asarlarini qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘ldi va yangi davr G‘arb navoiyshunosligiga yo‘l ochdi. Bertelsning mana shunday tadqiqotlari natijasida yuzaga kelgan katta hajmdagi “Navoiy” monografiyasi prof.I.K.Mirzayev tomonidan mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilindi<sup>51</sup>.

Shu bilan birga, Ye. E. Bertels bu yerda turkiy tillardagi adabiyotlarning fors tilidagi adabiyotga aloqasi masalasida xolosona fikr yuritishga harakat qildi. Ayni vaqtda Ye. E. Bertels turkiy xalqlar adabiyoti pastroq darajada degan fikrga qarshi chiqdi va turkiy tilli xalqlar adabiyotini “fors mualliflarining mumtoz asarlariga taqlid qilish” sifatida tavsiflovchi bu fikr tarafdorlarini tanqid qildi<sup>52</sup>. 1920-yillarda ifodalangan bu fikrlarning barchasi Ye. E. Bertelsning 1930-1950-yillarda yozilgan asarlarida juda boy rivojlangan. Navoiy ijodini o‘sha davr fonida konkret o‘rganishga kirishgan Ye. E. Bertels keyinchalik uning ijodining ilg‘or va insonparvarlik xususiyatini keyingi tadqiqotlarida ochib berishga harakat qildi.

Ye. E. Bertels Kubroviya tariqati asoschisi shayx Najmiddin Kubroning faoliyatiga ham qiziqadi. Buni o‘z tadqiqotlarida alohida mavzu sifatida ochib berishga harakat qiladi. Ba’zi bir tadqiqotchilar shayx Najmiddin Kubroning «Ruboiylar» kitobi ham mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot bergan bo‘lsalar-da, bu noyob to‘plam hali topilgan emas. Biz faqat atoqli sharqshunos Ye.E.Bertels tomonidan Kubro qalamiga mansubligi taxmin qilinib, turli tazkira va bayozlardan tanlab olingan va olimning «Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti» kitobida keltirilgan 25 ta ruboiygagina egamiz<sup>53</sup>. Eronda nashr etilgan «Ruboiynoma» to‘plamida ham shayx-shoirning 8 ta ruboiysi keltirilgan bo‘lib, ulardan faqat bittasi Ye.E. Bertels keltirgan ruboiylar orasida uchramaydi. Demak, hozirgacha bizga buyuk vatandoshimiz ijodiga tegishli 26 ta ruboiy ma’lum. Bu ruboiylar nisbatan qisqa fursat ichida uch marta o‘zbek tiliga o‘girildi.

<sup>49</sup> Bertельс Е.Э. Избранные труды. [Т.4.] Навои и Джами. М., 1965. – 499с. 46-64.

<sup>50</sup> Shu joyda. 417-431.

<sup>51</sup> Bertельс Е.Э. Навоий. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Т.: Тафаккур қаноти, 2015. – 356 б.

<sup>52</sup> Bertельс Е.Э. Избранные труды. [Т.4.] Навои и Джами. М., 1965. – 499с. 377-бет.

<sup>53</sup> Bertельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с.324-330-бетлар

Ye.E. Bertelsning tanlangan asarlarining yangi jildida tasavvuf haqidagi asarlari – nafaqat fors, arab va turkiy adabiyoti ham jamlangan. Shuningdek, ushbu jildga avvalroq turli mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan asarlar kiritilgan, shu bilan bir qatorda birinchi marta Ye. E. Bertelsning shaxsiy arxividan topilgan asarlar nashr etilgan. Ye. E. Bertelsning tasavvufga oid ko‘p yillik ishlari ko‘lami jihatidan nihoyatda kengdir. Unda tasavvuf qo‘lyozmalarini mazmunini o‘rganishdan tortib, tasavvuf she‘riy terminologiyasining ma‘nosini ochib berishgacha va alohida mualliflar haqidagi eslatmalardan tashkil topadi. Ye.E. Bertels asarlarining xilma-xilligi bois ushbu jildda uning barcha materiallarini uchta bo‘limga guruhlashadi.

I. Mavzuning umumiy masalalariga bag‘ishlangan tasavvufga oid maqola va asarlar.

II. Tasavvuf terminologiyasiga oid maqolalar.

III. Ayrim alohida olingan mualliflarga bag‘ishlangan maqolalar.

Ushbu bo‘limlardagi maqolalar mualliflar tomonidan xronologik tartibda va maqolalar Ye. E. Bertels tomonidan yozilgan vaqtga ko‘ra taqsimlanadi. Tasavvuf atamalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarning salmoqlilaridan biri sharqshunos olim Ye.E.Bertels tomonidan fors-tojik adabiyoti misolida amalga oshirilgan ilmiy ishdur. Olim tasavvuf timsollariga bag‘ishlangan bir qator maxsus maqolalar yozishni niyat qilgan ekan, afsuski, shu turkumdan faqatgina bitta maqola yozib qoldirishga ulgurgan. Bu – zulf va yuz timsoliy so‘zlariga bag‘ishlangan maqola .

Ye. E. Bertelsning shaxsiy arxividan topilgan, muallif tomonidan nashrga tayyorlagan, ammo u yoki bu sabablarga ko‘ra nashr etilmay qolgan asarlar qatorida:

- 1) Tasavvufning kelib chiqishi va tasavvuf adabiyotining tug‘ilishi;
- 2) Ibrohim ibn Adhamning “Qutadg‘u bilik”dagi so‘zlari.

Shuningdek, muallif tomonidan tugallanmagan bir nechta asarlardan, nashrga tayyorlanmagan bo‘lsa ham, ushbu jildga quyidagilar kiritilgan.

- 1) Tasavvuf atamaları lug‘ati Murod-i ushshaq.
- 2) Shayx Najmiddin Kubro haqida roman (jamlanma).

**V. V. Bartoldning** ilmiy faoliyatini ham islomshunoslik hamda tasavvufshunoslik tadqiqotlarida alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. V. V. Bartold<sup>54</sup> o‘zining 1927-yilda yozilgan “Turkiston madaniy hayoti tarixi” asarida Movarounnahrda eng keng tarqalgan so‘fiylik yo‘nalishi XII asr ilohiyotshunosi va tasavvuf olimi Yusuf Hamadoniy maktabidan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi<sup>55</sup>.

Ushbu asarda V. V. Bartold Movarounnahr aholisining o‘rta asrlardagi diniy holatini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Turkiy xalqlar va ularning madaniyati,

<sup>54</sup> Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869 yil, Sankt-Peterburg — 1930 yil, Leningrad) — rus va sovet tarixchisi, o‘rta asr sharqshunosi (turkolog, arabshunos), islomshunos, arxivchi, filolog; rus sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri. Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasining akademigi (1913) (bundan keyin - SSSR Fanlar akademiyasi). “Brokxauz va Efron entsiklopedik lug‘ati” hamda “Islom ensiklopediyasi”ning birinchi nashri mualliflaridan biri.

<sup>55</sup> Бартольд, Василий Владимирович. История культурной жизни Туркестана / В. В. Бартольд ; Акад. наук СССР, Комис. по изучению естеств. производит. сил СССР. - Л. : Акад. наук СССР, 1927. - [2], II, 256 с.

dinini o'rganishga harakat qiladi. Xususan, unda Movarounnahrda islom dini kirishidan oldingi holati, Turkiston islom dini davridagi holati, Movarounnahr aholisining diniy e'tiqodlari, o'lkada mavjud bo'lgan tasavvuf tariqatlari haqida ma'lumot beradi. Ayniqsa Movarounnahrda Amir Temur va Temuriylar davrida diniy va jamoat maqsadlarida xizmat qilgan binolar, masjid va madrasalar, o'lkada mavjud bo'lgan darveshlar to'g'risida bir qator ma'lumotlarni aytib o'tadi. Shuningdek, Rossiya hukmronligi ostida o'troq va ko'chmanchi hayot va ularning diniy e'tiqodlari. Asarda O'rta Osiyodagi tasavvuf ulamolari haqida qisqacha ma'lumot berilgan<sup>56</sup>.

Keyingi davrlarda yozilgan asarlarda sovet mafkurasining ta'siri ortib boradi. Ushbu tendensiyani O'rta Osiyo bo'yicha mutaxassis, sovet etnografi, sharqshunosi, **Olga Aleksandrovna Suxareva**<sup>57</sup> asarlarida ko'ishimiz mumkin. Unin "O'zbekistonda islom" nomli asari 1960 – yilda nashr etildi. Ushbu asarda sovet davri mafkurasini ta'siri sezilib turadi. Xususan, kommunistik g'oya asoschilari K. Marks hamda Leninning din haqidagi salbiy fikrlari o'rin olgan bo'lib, unda din sinfiy tengsizlikning himoyachisi sifatida talqin etilgan hamda unda K. Marksning din xalqlarning afyunidir degan g'oya singdirilgan. Shuning uchun ham ushbu asarni o'rganishda tanqidiy yondashish lozim bo'ladi. Unda musulmonlarning diniy e'tiqodi dogmatik talqin etiladi.

Asar quyidagi boblardan iborat.

I. Islomning paydo bo'lishi va tarqalishi

II. Musulmonlarning diniy burchlari va musulmon urf-odatlari

III. Islom mifologiyasi va qadimgi e'tiqod qoldiqlari

IV. Tasavvuf

V. Diniy mafkuradan ekspluatatsiya sifatida foydalanish

VI. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasiga qo'shilishdan keyin xalq hayotidagi o'zgarishlar.

VII. O'zbekistonda islom «Buyuk Oktyabr sotsialistik inqilob keyin»<sup>58</sup>.

Asarda Islom fiqh bo'yicha bir qator ma'lumotlar berilgan. Unda islom tarixi, Shia va Sunniylarning bo'linishi haqida qisqacha to'xtalib o'tildi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo xalqlari qaysi aqidada ekanligi to'g'risida hikoya etadi. Shuningdek bunda musulmon xalqlarining tarixiy obidalari haqida ham ma'lumot beradi. Markaziy Osiyo musulmonlarining diniy urf-odatlari va an'analari haqida ham atroflicha muhokama qilindi.

Qolaversa ushbu risolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'zbekiston xalqlarining kundalik hayotida islomning namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllari ko'rib chiqiladi, uning marosimlarining tarixiy ildizlari va tabiati tushuntiriladi, islom mifologiyasi ilmiy jihatdan izohlanadi, diniy ta'limotlardan foydalanish ko'rsatiladi. Ushbu asarda Bahouddin Nashqband, Ahmad Yassaviy kabi tasavvuf allomalarining

<sup>56</sup> Бартольд, Василий Владимирович. История культурной жизни Туркестана / В. В. Бартольд ; Акад. наук СССР, Комис. по изучению естеств. производит. сил СССР. - Л. : Акад. наук СССР, 1927. - [2], II, 256 с.

<sup>57</sup> О.А. Сухарева. Ислам в Узбекистане. Издательство Академии Наук Узбекской ССР. Ташкент. 1960.

<sup>58</sup> Shu joyda. 80-85.

maqbaralari haqida keng ma'lumot berilgan<sup>59</sup>. Bu maqbaralar atrofida o'tkaziladigan udumlar to'g'risida hikoya qiladi. Asarda bu urf-odatlarini fanatizm sifatida talqin etiladi.

Sovet davlati parchalangandan keyin Rossiyada sharqshunoslik, islomshunoslik, xususan, tasavvufshunoslik sohalari yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda A. A. Xismatulinning<sup>60</sup> tadqiqotlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Jumladan, A. A. Xismatulin tomonidan yozilgan "Tasavvuf"<sup>61</sup> nomli asarda tasavvufning ma'naviy kelib chiqishi, ularning Muhammad payg'ambar davridagi musulmonlar jamoasidan tasavvuf birodarlik shaklidagi uyushgan shakllarga evolyutsiyasi, shuningdek, tasavvuf taroqatlarining asosiy tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Kitobning yakuniy qismida birinchi marta rus tilida mashhur musulmon mutafakkiri Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy at-Tusiyning (1058-1111) kichik, ammo mazmunan muhim asari "Ilm-i laduni" bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi.

A. A. Xismatulin tomonidan yozilgan "Markaziy Osiyoda tasavvuf" (xorijiy tadqiqotlar<sup>62</sup>) nomli asar — Rossiyada Markaziy Osiyodagi islom tasavvufiga bag'ishlangan birinchi to'plam hisoblanadi. Ushbu asar ishtirok etgan barcha mualliflarning roziligi bilan to'plam taniqli shveytsariyalik sharqshunos va islomshunos olim Frits Mayer (1912-1998) xotirasiga bag'ishlangan. Ushbu to'plam keng rus kitobxoniga kam ma'lum bo'lgan xorijiy Sharqshunoslik markazlarining yetakchi mutaxassislarining asarlari asosida tayyorlangan.

To'plamda ularning sharqshunoslik maktabi an'analari, tasavvufga bo'lgan qarashlari va uni o'rganishdagi o'ziga xos uslublari ifodalanadi. Binobarin, ushbu to'plamning o'ziga xosligi Markaziy Osiyo tasavvufini o'rganishdagi so'nggi yo'nalishlarni aks ettirishi, mavjud barcha qo'lyozma manbalar va nashr etilgan tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilish asosidagi yondashuvlarning yangiligidadir. Ushbu to'plamda xatto ayrim mualliflarning zamonaviy dala tadqiqotlari ham o'rin olgan. To'plamda Markaziy Osiyoda mo'g'ullargacha bo'lgan davrdan boshlab, Markaziy Osiyoda bugungi kungacha saqlanib qolgan tasavvuf tariqatining ko'p asrlilik an'analari hamda tasavvuf jamoalarining marosim amaliyotining tadrijiy taraqqiyotini mustaqil ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, ushbu asardan tasavvuf allomalarining, birinchi navbatda, Naqshbandiya, Kubroviya va Yasaviyya tariqatlari ilmiy merosini

<sup>59</sup> О.А. Сухарева. Ислам в Узбекистане. Издательство Академии Наук Узбекской ССР. Ташкент. 1960. 120-140-betlar.

<sup>60</sup> A. A. Xismatulin 1966 yilda Sverdlovskda (hozirgi Yekaterinburg) tug'ilgan. 1984 yilda Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharq fakulteti Yaqin Sharq bo'limining Afg'oniston tarixi bo'limiga o'qishga kirgan; 1991 yilda uni imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 1991-1995 yillarda - Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburg sharqshunoslik fakulteti aspiranti; 1997 yilda "Naqshbandiya tariqatida pragmatik tasavvuf (XII-XVI asrlar fors yozma manbalari asosida)" mavzusida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1997 yildan hozirgi kungacha Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Yaqin Sharq sektorida kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

<sup>61</sup> Хисматулин А. А. Суфизм. — СПб.: «Азбука-классика»; «Петербургское востоковедение», 1999. — 272 с.

<sup>62</sup> Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): сб. Ст. Памяти Фритца Майера (1912- 1998) / сост. И отв. Редактор А. А. Хисматулин. 2001. 394 с.

o'rganishi mumkin<sup>63</sup>. To'plamdagi maqolalar ushbu sohadagi fanning hozirgi holati, foydalanilgan kontseptual apparatlar haqida ham ma'lumot beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xolmo'minov, Ja'far. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya).– T.: 2021. 280b.
2. Ahmad Abdullayev. Tasavvuf va uning namoyondalari. Termiz 2007.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent. 2006.
4. Н. Номидий. Tasavvuf allomalar. Toshkent. 2004.
5. Бартольд, Василий Владимирович. История культурной жизни Туркестана / В. В. Бартольд ; Акад. наук СССР, Комис. по изучению естеств. производит. сил СССР. - Л. : Акад. наук СССР, 1927. - [2], II, 256 с.
6. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 526с.
7. Бертельс Е.Э. Избранные труды. [Т.4.] Навои и Джамии. М., 1965. – 499с.
8. Бертельс Е.Э. Навоий. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. – Т.: Тафаккур каноти, 2015. – 356 б.
8. О.А. Сухарева. Ислам в Узбекистане. Издательство Академии Наук Узбекской ССР. Ташкент. 1960.
9. Хисматулин А. А. Суфизм. — СПб.: «Азбука-классика»; «Петербургское востоковедение», 1999. — 272 с. («Мир Востока»).
10. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): сб. Ст. Памяти Фритца Майера (1912- 1998) / сост. И отв. Редактор А. А. Хисматулин. 2001. 394 с.

<sup>63</sup> Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): сб. Ст. Памяти Фритца Майера (1912- 1998) / сост. И отв. Редактор А. А. Хисматулин. 2001. 394 с. 255-280.